

YULDASHEVA Dilfuza Rashid qizi
O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Islomshunoslik mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

Илмий раҳбар: **ХАКИМОВА Нигора**
O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini
o'rganish ICESCO kafedrasi dotsenti, PhD

INSON MANFAATLARINI ANIQLASHDA NAQL VA AQLNING O'RNI

THE ROLE OF REVELATION AND REASON IN DETERMINING HUMAN INTERESTS

РОЛЬ ОТКРОВЕНИЯ И РАЗУМА В ОПРЕДЕЛЕНИИ ЧЕЛОВЕЧЕСКИХ ИНТЕРЕСОВ

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qur'on karimda "aql" tushunchasining ifodalinishi, uning fe'l shaklidagi qo'llanishi va inson tafakkuridagi o'rni ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Unda aqlning insonni fikrlash, ibrat olish va haqiqatni anglashga yo'naltiruvchi asosiy vosita ekanini Qur'on oyatlari va tafsirlar asosida yoritiladi. Shuningdek, maqolada aqlning axloqiy qarorlar qabul qilishdagi roli hamda uning sezgi va vahiy bilan o'zaro bog'liqligi islom falsafasi doirasida ko'rib chiqiladi. Izz ibn Abdulalom, G'azzoliy va Shotibiy kabi olimlarning qarashlari asosida aql va vahiy o'rtasidagi muvozanat hamda maslaha tushunchasining ahamiyati ochib beriladi. Xulosa qilib aytganda, aql va vahiy bir-birini inkor etmaydi, balki insonni to'g'ri yo'lga yo'naltiruvchi uyg'un tizim sifatida namoyon bo'ladi.

Kalit so'zlar: Qur'on, aql, tafakkur, vahiy, maslaha, kalom, islom falsafasi, idrok, axloq.

Abstract. This article provides a scholarly analysis of the concept of "intellect" ('aql') in the Holy Qur'an, its usage in verbal forms, and its role in human cognition. It highlights, based on Qur'anic verses and exegetical interpretations, that intellect serves as a fundamental means guiding human beings toward reflection, moral reasoning, the acquisition of wisdom, and the understanding of truth. Furthermore, the study examines the role of intellect in ethical decision-making and its interrelation with sensory perception and divine revelation within the framework of Islamic philosophy. Relying on the views of scholars such as Izz al-Din ibn Abd al-Salam, al-Ghazali, and al-Shatibi, the article

explores the balance between intellect and revelation as well as the significance of the concept of maslaha (public interest). In conclusion, it is emphasized that intellect and revelation do not contradict each other; rather, they function as a harmonious system guiding human beings toward the right path.

Keywords: Qur'an, intellect, reflection, revelation, maslaha, kalam, Islamic philosophy, cognition, ethics.

Аннотация: В данной статье проводится научный анализ понятия «разум» ('aql) в Священном Коране, его употребления в глагольных формах и его роли в человеческом мышлении. На основе коранических аятов и тафсиров подчеркивается, что разум является основным средством, направляющим человека к размышлению, нравственному осмыслению, приобретению мудрости и познанию истины. Также рассматривается роль разума в процессе принятия этических решений и его взаимосвязь с чувственным восприятием и божественным откровением в рамках исламской философии. На основе взглядов таких ученых, как Иzz ад-Дин ибн Абд ас-Салам, аль-Газали и аш-Шатиби, раскрывается вопрос баланса между разумом и откровением, а также значение концепции маслахи (общественной пользы). В заключение подчеркивается, что разум и откровение не противоречат друг другу, а представляют собой единую гармоничную систему, направляющую человека к истине.

Ключевые слова: Коран, разум, размышление, откровение, маслаха, калам, исламская философия, познание, этика.

KIRISH

Qur'onda "aql" so'zi ot sifatida hech uchramaydi, biroq turli shakllarda fe'l sifatida keladi [5:468-469]. Bu esa aqlga ega bo'lib qolmay, aql yuritish, tafakkur qilishning ahamiyati bayon qilinayotganini ko'rsatadi. Qur'onda aqlni ishlatish, ya'ni fikrlash, tafakkur qilish bilan bog'liq oyatlar soni 750 dan ortadi [7:44]. Aql kabi buyuk ne'matni inkor qilgan yoki aqlni ishlatish kerak bo'lgan joyda uni ishlatmagan kishi qoralangan [3:18]. Aqlni ishlatmaslikning oldini olish uchun ogohlantiruvchi choralar ham qo'yilgan. Qur'onning Yunus surasi 100-oyatida shunday deyiladi: "Allohning iznisiz hech bir jon (inson) imon keltira olmas. Azobni esa (Alloh) aql yuritmaydiganlarga ravo ko'rar" [8:220]. Bundan tashqari, Alloh insonlarga haqiqatni sezish, anglash va ular haqida fikr yuritish vazifa va imkoniyatini

berganini quyidagicha bildiradi: “Shu tariqa Alloh sizlarga o‘z oyatlarini bayon etadi, shoyad (shunda) aql yuritsangiz” [8:39].

ASOSIY QISM

Qur’oni Karimda aqlning qanday buyuk va zarur ne’mat ekani haqidagi ko‘plab oyatlar mavjud. Unda aql:

1. o‘ylash uchun;
2. ibrat olish uchun;
3. o‘git olish uchun;
4. hidoyatga erishish uchun;
5. johillikda qolmaslik uchun;
6. ruhiy jihatdan ko‘r, kar va soqov bo‘lmaslik uchun;

7. ayniqsa Qur’onning ma’nosini tushunish uchun zarur ekanligi [2:16] bayon etiladi [8:261].

“Aql” so‘zining fe’l shaklidagi barcha o‘rinlarida e’tibor tortadigan jihat shuki: bu fe’l har doim ijobiy bir amaliyotni bildiradi. Aqlni ishlatish Qur’onda hech qachon salbiy, tiyilish lozim bo‘lgan yoki yomon bir ish sifatida tilga olinmaydi [9:5]. Qur’on orqali insonning yaxshilik va yomonlikni, to‘g‘ri va noto‘g‘rini (o‘ziga foydali yoki zararli bo‘lganini) ajrata olish qobiliyati tug‘ilishidan berilgani ma’lum bo‘ladi. “Kishiga va uni shakllantirgan Zotga, so‘ng unga yomonlik va yaxshilikni ilhom qilganga qasamki, kim o‘zini poklasa najot topdi, kim uni bulg‘ab yashirsa halokatga uchradi”. Ushbu oyatni sharhlar ekan, Muhammad Elmalili shunday deydi: “Shubhasiz, Alloh har bir insonga yaxshilik va yomonlik tuyg‘usini bergan. Ammo inson har bir masalada nimaning yaxshi, nimaning yomon ekanini har doim faqat aqli bilan aniqlay olmaydi. Ko‘plab odamlar yaxshi va yomonni, to‘g‘ri va noto‘g‘rini kelajakni hisobga olgan holda emas, aksincha faqat bugungi kun va o‘z manfaatiga qarab o‘lchaydi. Aslida esa inson zavq–alam, yaxshilik–yomonlik, foyda–zarar kabi narsalarni his qila olgani uchun boshqalarni ham o‘zi kabi deb o‘ylab “haq” tamoyili bilan harakat qilsa, tafsilotini bilmagan narsalarni biluvchilardan so‘rasa va baribir aniqlay olmasa, o‘sha ish o‘ziga yoqishidan qat’i nazar, umumiy ma’noda haq qanday bo‘lsa, shunga qarab yurib qalbiga, vijdoniga murojaat qilsa – Alloh uning qalbiga o‘sha ishning yomonmi yoki taqvoga mosmi ekanini ilhom qiladi” [6:242].

Inson yomonlikni o‘z vijdonini to‘liq tinchlantirib qilo olmaydi. Masalan, bir o‘g‘ri qilgan

yomonligidan kelib chiqadigan vijdon azobini qanchalik bosishga harakat qilmasin, to‘liq ichki osoyishtaga erishishi qiyin. Shu bois Payg‘ambar (s.a.v): “Seni shubhada qoldiradigan narsani tark et, shubha uyg‘otmaydigan narsaga amal qil,” deganlar.

“Etika” deb ataladigan “nazariy axloq”, “yaxshi-yomon”ning ilmidir. Axloqning, yaxshi va yomonning ham nazariy asoslari mavjud. Axloqning asoslantirilishi odatda quyidagi to‘rt guruhda jamlanadi:

a) Sezgiga asoslangan axloq: Henri Bergson (1859–1941) va G.E.Moore kabi mutafakkirlarga ko‘ra axloqning asosi sezgi (intuitsiya)dir. Moore “yaxshilikni tabiiy obyektlarning tabiiy bo‘lmagan sifati” deb ta’riflaydi va “inson bu sifadni o‘z sezgisi orqali bevosita anglaydi,” deydi.

b) His-tuyg‘uga asoslangan axloq: Bu nazariyaga ko‘ra axloq va qonunlarni belgilashda insonning manfaatga asoslangan hislari mezon bo‘ladi. John Locke (1632–1704), David Hume (1711–1776) va John Stuart Mill (1806–1873) kabi mutafakkirlar axloqning asosini his-tuyg‘ular deb biladilar. Lockening sezgi orqali bilishning obyektivligi haqidagi asoslari bir necha omillardan iborat:

Birinchidan, sezgi orqali hosil bo‘ladigan tasavvurlar xotira va tasavvurdan keladigan fikrlardan farq qiladi; chunki ular hech qanday harakatga ehtiyoj sezmasdan tabiiy ravishda hosil bo‘ladi.

Ikkinchidan, ba’zan sezgi bilan birga lazzat yoki og‘riq ham keladi – bu xotira va tasavvurda bo‘lmaydi. Bu yerda qat’iylik insonning baxtiyorlik yoki baxtsizlik darajasi bilan bog‘liq bo‘ladi.

Uchinchidan, ayrim sezgilar bir-birini tasdiqlaydi va buning natijasida sezgi tajriba haqida ishonchli bilim hosil bo‘ladi. Aql orqali to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri hukmiga kelib bo‘lmaydigan holatlarda, Xudoning insonga bergan bu qobiliyati aniq va qat’iy bilimga bo‘lgan ehtiyojni qondiradi.

Inson aqli maslahani to‘liq va butunlay xatosiz anglay olmaydi. Ma’lum bir vaqtda maslahat deb ko‘ringan narsa boshqa bir vaqtda bunday ko‘rinmasligi mumkin. Bundan tashqari, aqlga ko‘ra foydali bo‘lib tuyulgan narsa, boshqa bir nuqtai nazardan qaralganda, zararli bo‘lib ko‘rinishi ehtimoldan holi emas. Ammo aql vahiy tomonidan yo‘naltirilsa, u holda natija mukammallikka juda yaqin bo‘ladi.

Islomda boshqa dinlardan farqli ravishda aqlning tabiat ustiga ko'tarilishi emas, aksincha tabiatga, mavjudotga yo'naltirilishi talab qilinadi. Shuning uchun odamlar endi Muso (a.s.) dan kutganlari kabi g'ayritabiiy mo'jizalarni kutmasliklari kerak. Chunki inson bilimi hozir tabiatdagi oddiy hodisalarning o'zidan mo'jizani ko'ra oladigan darajaga yetgan. Kundalik tilda mo'jiza tabiat qonunlaridan chetga chiqish ma'nosida ishlatiladi. Enshteyn esa bu so'zni tabiat qonunlarining mavjudligini ifodalash uchun ishlatadi. Einshteynning "mo'jiza" so'zini shu ma'noda ishlatishi Qur'on ruhiga juda mos keladi. Qur'onning o'z ifodalarga ko'ra, insonni imonga yetaklaydigan vosita – bu olamdagi koinot oyatlaridir.

Qur'on aqlning mo'jizalarni koinotdagi oyatlar orasidan topishini istaydi. Agar Muso (a.s.) odamlarning o'zlari, hayvonlar, o'simliklar, tog'lar yaratilishi, yomg'irning yog'dirilishi, shamolning esdirilishi, yerning inson yashashiga qulay holga keltirilishi kabi hodisalarga qarab iymon keltirishlarini kutganida, o'sha davr odamlarining juda oz qismi bunday oyatlarga qarab iymon keltira olgan bo'lardi.

Muso (a.s.) va boshqa payg'ambarlar dinni tasdiqlash uchun tabiat qonunlariga zid tarzda yaratilgan g'ayritabiiy mo'jizalarga muhtoj bo'lgan bo'lsalar, Muhammad (s.a.v.) bilan birga – ilm yetgan pishiq darajadan boshlab – bunday g'ayritabiiy mo'jizalar o'rniga aqliy mo'jizalarni izlash kerakligi mushriklarning mo'jiza talablari rad etilganda va tafakkur varlik oyatlariga yo'naltirilganda zimdan bayon qilinadi. Shu tariqa butun insoniyat aqliy mas'uliyat ostiga qo'yilgan bo'ladi.

Aqlni idrok qilish quvvati sifatida ham ta'riflanadi. Lug'atda esa "to'smoq, mone' bo'lmoq, ushlab qolmoq, qaytarib turmoq" ma'nolarini anglatadi. Aql egasini xavfli ishlardan qaytaradi, uni saqlaydi.

Kalom ilmidan kelib chiqqan holda, aqlga shaxslar va maktablarga ko'ra turlicha ta'riflar berilgan bo'lsa-da, umumiy ma'noda aql – bilimning manbai bo'lgan bir quvvat sifatida tan olingan.

Islom manbalarida Alloh barcha insonlarni aql bilan sharaflagani va ularni O'z qonunlariga rioya etishga chaqirgani ta'kidlanadi. Shubhasiz, aql ulkan bir maslaha, bebaho foyda va ulug' ne'matdir.

Aynan aql mavjud bo'lgani uchun inson diniy mas'uliyat va javobgarlikka ega bo'ladi. Shu bois, aql har qanday diniy buyruq va ta'qiqning asosi sanaladi. Diniy va dunyoviy maslahalarga erishish shariat ko'rsatmalariga tayanadi, shariatning o'zi esa aqlga asoslanadi.

Aqlni muhokama qilishda bilim va idrokiy manbalarni tashkil etuvchi uch omil mavjud:

1. Bu hissiy idrok (sezgi organlari); u eng tor bo'lib, bevosita seziladigan narsalar doirasidan tashqariga chiqmaydi.

2. Aql sohasi bo'lib, u birinchi omildan kengroq va mukammalroqdir, chunki u sezgi bilan idrok etilmaydigan narsalarni ham o'z ichiga oladi.

3. Bu omil esa – vahiy bo'lib, u uchalasining ichida eng umumiy, eng keng va eng mukammalidir. Bu uch omil bir-biridan ajralgan yoki o'zaro zid emas. Aksincha, har biri keyingisiga yo'l ochadi va unga asos bo'ladi. Shu bilan birga, yuqoridagi har biri o'zidan oldingisini boshqaradi, uni to'g'rilaydi va unga yo'l ko'rsatadi. Bu uch omil orasida ziddiyat faqat ushbu omillardan birini inkor etganlarning yoki ularni noto'g'ri tartibda qo'yganlarning ongida paydo bo'ladi. Aql va e'tiqodga doir barcha tafovutlar ham aslida shu uch doiradan birini inkor etish, uni idrok vositasi sifatidagi ahamiyatini kamaytirish yoki uni o'z o'rnidan yuqori yoki past qo'yish bilan bog'liq. Hissiyot maydoni aqlda yakun topadi, aql esa vahiyga yetaklaydi. Chunki aql hissiy idroksiz mavjud bo'la olmaydi. Sezgi bo'lmasa, aql ham faoliyat ko'rsata olmaydi. Shuningdek, aql bo'lmasa, vahiy va uning hukmlarini anglab bo'lmaydi.

Izz ibn Abdusalom, Tabriziy va Tufiy aql va vahiy tushunchalari bir-biriga chambarchas bog'liq deb bilganlar. Ibn Abdusalom bu borada shunday deydi: "Dunyo ishlari bilan bog'liq maslaha va mafsadalarning aksariyati aql orqali bilinadi. Shuningdek, ilohiy qonunlarning aksariyati ham aql orqali idrok etiladi. G'azzoliy "Ilohiy qonun sirtidan turib aql sifatida namoyon bo'ladi, aql esa ichkaridan turib ilohiy qonundir; ular bir-birini qo'llab-quvvatlaydi, balki ular birlashgandir". Isfahoniy ham aynan shu fikrni o'zining "Tafsir nashatayn va tahsil saodatayn" asarida keltiradi.

Izz ibn Abdusalom fikriga ko'ra, "Kim munosabatlar, maslahalar va mafsadalarni ularning afzalliklari va kuchsiz tarafini bilmoqchi bo'lsa, u shariatni hali nozil qilinmagan deb tasavvur etib,

aqlidan foydalanib hukmlarni aniqlasin. Shunda shariatga oid biror hukm topilmay qolmaydi, bundan mustasno bo‘ladiganlar – faqat sof ibodatga oid bo‘lgan va foyda ham, zarar ham Alloh tomonidan bayon qilinmagan hukmlardir. Shuningdek Ibn ibn Abdusalom aql va shariat o‘rtasidagi bog‘liqlikni quyidagicha izohlaydi: “Kim shariatning foydalarni hosil qilish va zararlarni daf etishdagi maqsadlarini kuzatsa, u nass, ijmo yoki aniq qiyos bo‘lmasa ham, maslahani e‘tiborsiz qoldirish mumkin emasligini, mafsadaga yaqinlashish esa mutlaqo joiz emasligini anglaydi. Aslida shariatning o‘zini anglash ham buni taqozo qiladi”[4:7].

Tabriziy singari olimlarning fikriga ko‘ra, maslahani aniqlashda asosiy tayanch nassdir. Ammo nassdan tashqari unga yaqin bo‘lgan dalillar ham qabul qilinadi. Masalan: munasib muassir (ta’sir ko‘rsatuvchi, mantiqan samarali asos), munasib mulaim (shariat qo‘llab-quvvatlaydigan mos asos). Bulardan keyin doira yanada kengayib, masolihi mursala (matn bilan bog‘lanmagan, lekin shariatga zid bo‘lmagan umumiy manfaatlar) kabi dalillarga ham o‘tadi.

Ba’zi molikiy olimlari hatto shuni kifoya deb biladilar. Agar bir amal aniq shariat ta’limotiga zid bo‘lmasa va umumiy mubohlik qoidasi ostiga kirsas, u maslahat sifatida qabul qilinadi.

Tufiyning fikriga ko‘ra, maslahaning o‘zi asosiy mezon (markaz) hisoblanadi. Maslahat aql orqali aniqlanadigan manfaat asosida kengayib borishi mumkin, hatto nassni cheklash yoki undan ustun qo‘yish darajasiga borishi ham mumkin. Bu yondashuvga binoan: maslahat mulg‘o ham mo‘tabar maslahatga aylanishi ehtimoli mavjud. Shunday bo‘lsa ham, ba’zi sharhlarda boshqacha talqin berilganiga qaramay, Tufiyning bu nazariyasi olimlarning aksariyatining fikriga ziddir[4:189].

Ko‘pchilik ulamolar bu masalada yuqorida qayd etilganidek, Izz ibn Abdusalomning fikriga yaqin bo‘lib, masalalarni shariat hali nozil bo‘lmagandek tasavvur qilib, aql bilan hukm chiqarish haqida gapirgan bo‘lsa ham, buni faqat shariatning asosiy maqsadlarini tushunish uchun qo‘llanilish kerakligini ta’kidlaydi. Ushbu fikrlar umumlashtirilganda shariatning maqsadlari – aqlning eng oliy maqsadlariga va nassning talablariga mos bo‘lib, masalalar dunyoviy manfaatlar bilan oxirat natijalari o‘rtasidagi bog‘liqlik nuqtai nazaridan baholanadi. Bundan tashqari, aql doirasi hislar doirasining tugagan

joyidan boshlanadi, va aynan aql sabablar va illatlarni inobatga olgan holda tafsilotlarni bir-biriga bog‘laydi. Birinchi doira (hissiyotlar) ikkinchi doira (aql) uchun bir boshlang‘ich asos hisoblanadi. Uchinchi doira (vahiy) esa “cheksiz dengiz” bo‘lib, uning chegaralarini faqat Alloh biladi. Shu bois, chegaralangan bir quvvat bo‘lgan aqlning vahiy bilan tenglasha olmasligi aniq; u faqat haqiqatni tanishda vahiyga ergashishi va uning ko‘rsatmasiga muvofiq yurishi mumkin.

Izz ibn Abdusalom shunday deydi: “Odamlar Alloh insonlar uchun imkonsiz qilgan narsalarni bilishga nechog‘lik chanqoq bo‘ladilar. Ular chuqurroq tafakkur qilib, bilishga ko‘proq intilgan sari yanada chalg‘ib, bexabar bo‘lib qoladilar.” Shu bois yuqoridagi tushunchaga ko‘ra, maslahani topish vahiy qilingan diniy ta’limotlarga tayanadi. Aql maslahatga ishora qiluvchi omil bo‘lsa-da, uni aniqlashning asl asosi vahiydir[4:13].

Ulamolarning ko‘pchiligi quyidagi fikrga ittifoq qiladi: qiyosdan foydalanishga ruxsat bo‘lmaganda edi, maslahat ham mutlaqo joiz bo‘lmas edi. Shuningdek, maslahatga amal qilish, o‘z tabiatiga ko‘ra maslahat bo‘lgani uchun emas, balki Shore’ uni talab qilgani uchundir. Shuning uchun aql bir qadam orqaga chekinib, vahiyning orqasida o‘z o‘rnini egallaydi. Abu Homid G‘azzoliy buni quyidagicha tushuntiradi: “Darhaqiqat, aql Payg‘ambar (s.a.v.)ning haqqo‘yligiga dalil keltiradi [1:57]. Keyin u chekinib, Alloh va oxirat haqida Payg‘ambar (s.a.v.)dan kelgan barcha xabarlarini qabul qiladi. Bu masalalar aqlning o‘zi bilan tushuniladigan narsalar emas, hamda aql ularni inkor eta olmaydi. Vahiy shunday narsalarni o‘z ichiga olishi mumkinki, aql ularni o‘z mustaqil faoliyati bilan anglab yetolmaydi. Masalan, aql mustaqil ravishda Alloh buyruqlarini bajarish oxirat saodatiga sabab bo‘lishini yoki gunohlar razolatga olib borishini bilolmaydi. Ammo aql buni imkonsiz ham deya olmaydi. Shuning uchun mo‘jiza Payg‘ambar (s.a.v.)ning haqqo‘yligini tasdiqlasa, aql u zot aytgan barcha narsaga shu yo‘l bilan imon keltiradi”. Demak, klassik davr olimlarining fikridan xulosa shuki, aql vazifa yuklashning ajralmas sharti va ulkan qadrga ega bo‘lsa-da, u vahiy tomonidan boshqarilishi va yo‘naltirilishi shart.

Aql idrok qiladigan dunyoviy maslahalar ham, faqat vahiyning taqriri ostida haqiqiy maslahatga aylanadi. Agar ular vahiyga mos bo‘lsa qabul

qilinadi, chunki haqiqiy maslaha faqat oxirat saodatiga eltadigan narsadir. Shu bois aql va vahiy yonma-yon yurishi majburiydir.

Shotibiy shunday deydi: “Vahiy va aql diniy masalalarda yonma-yon kelganda, bu shart bilan bo‘lishi kerakki, vahiy yetakchi, aql esa ergashuvchi bo‘lsin. Ya’ni aql o‘z faoliyat maydonini vahiyning belgilab bergan chegaralarida ushlab turishi lozim”. Shuning uchun aqlning maslaha yoki mafsadani o‘zi baholab, bir narsani vojib, harom yoki muboh qilishga haqi yo‘q. Hukm chiqaruvchi yagona zot Shore‘ning o‘zidir. Shu bois haqiqiy mezon –ilohiy vahiydir. Bu tushunchaga ko‘ra: aqlga mutlaqo tayanmay sodir etilgan hukmlar nuqsonli, aqlga ochiqdan-ochiq zid bo‘lgan fikrlar botildir.

Aqlni haddidan oshirib yuboradigan guruhlar, ayrim masalalarda o‘zlarining xato deb o‘ylamagan mulohazalari asosida hukm chiqarib, narsalarni vojib, harom yoki muboh deb belgilaydilar, hatto Payg‘ambarning (s.a.v.) ko‘rsatmalariga zid fikrlarga borib qoladilar. Bunga qarama-qarshi bo‘lgan guruhlar esa aqlni butunlay chetga surib qo‘yib, noto‘g‘ri holatlarga kirishib, Alloh insonlarga ato qilgan tafakkur va idrok ne‘matini inkor etadilar. Shunday qilib, ushbu yondashuvga ko‘ra, maslahani ta‘minlash va mafsadani oldini olish faqat aql bilan belgilanmaydi. Aksincha, aql va vahiy birgalikda faoliyat yuritishi lozim, chunki aql shariatdan mustaqil holda hukm chiqarmasligi kerak.

XULOSA

Asosiy xulosa shuki, aql va vahiy o‘rtasida hech qanday qarama-qarshilik bo‘lishi mumkin emas. “Aniq” (aqlga ravshan bo‘lgan) bilan “sahih” (vahiyga asoslangan) o‘rtasidagi tabiiy munosabat shundan iboratki, sahih dalil aniqlikni to‘g‘rilaydi, aniqlik esa sahihni tan oladi. Agar ziddiyat ko‘rinadigan bo‘lsa, bu matnning sahih emasligi yoki aql dalilining noaniqligidan dalolat beradi.

Yuqorida bayon qilingan fikr, shuningdek, inson aqlining “tabiiy” chegaralari mavjudligini ko‘rsatadi. Qur‘on ham ana shu nuqtaga ishora qiladi, ko‘plab kishilar maslaha deb o‘ylagan narsalarini izlaydilar, ammo unga erishganlarida, u kutilganidan butunlay farq qiladi yoki hatto zid bo‘lib chiqadi. Shunda ular bilimsiz holda tortishishni boshlaydilar va o‘z fikrlarini vahiydan

ustun qo‘yadilar. Bu holat Qur‘on ta‘rifiga ko‘ra, insonning aqliy cheklovlarini buzishi, bilmagan narsasi haqida da‘vo qilishidir. Qur‘onda aytiladi: “Sizda biroz bilim bo‘lgan narsalar haqida tortishdingiz, endi bilimingiz bo‘lmagan narsalar haqida nega tortishasiz? Darhaqiqat, Alloh biladi, siz esa bilmaysiz”. Boshqa oyatda: “Bas, Allohga o‘xshash biror narsa keltirmang. Albatta, Alloh biladi, siz esa bilmaysiz.” Demak, vahiydan mustaqil holda faqat aqlga tayanish – aqlning o‘zini ham zaiflashtiradi, vahiy esa pastga qo‘yiladi. Natijada, vahiy orqali xabar qilingan har bir narsa maslahaga olib boradi. Inson aqli bunga qo‘shilishi mumkin, ba‘zan esa bu hikmatni anglay olmasligi ham mumkin. Shuningdek, har bir man qilingan narsa mafsadadir; inson aqli bu hukmni tushunadimi yo‘qmi – hukmning o‘zi o‘zgarmaydi. Shu bois, Islom nuqtai nazaridan, maslahaning “mukammal” ishlashi ravshan aql va qat’iy vahiy birlashganda yuz beradi. Ana shunda maslaha nafaqat dunyoda, balki oxiratta ham haqiqiy foyda keltiradi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR

1. Abu Homid G‘azzoliy. Maorij al-quds fi madorij ma‘rifa an-nafs. – Bayrut: Dor ul-afiq al-jadida, 1975.
2. Ahmet Yüksel Özemre. İslam’da aklın önemi ve sınırı. – İstanbul: İnsan yayınları, 1996.
3. Hüseyin Erdem. İslam’da rasyonellik meselesi. – Konya: nashriyoti ko‘rsatilmagan, 1997.
4. Izz ibn Abdusalom. Al-Qovaid al-kubro. – Bayrut: Dor ul-kutub al-ilmiyya, 1999. – J. II.
5. Muhammad Abdulboqiy. Al-Mujam. – Qohira: Dor al-hadis, 1987.
6. Muhammed Elmalılı. Hak dini Kur’an dili. – İstanbul: Eser neşriyat, 2002.
7. Mustafo Chetin. Qur‘onda tafakkur tushunchasi. – İzmir: D.E.U. 8-son, 1994.
8. Qur‘oni karim: ma‘nolarining tarjima va tafsiri // Tarjima va tafsir muallifi: A. Mansur. – Toshkent: TIU, 2004.
9. Şakir Koçabaş. Kur’an’da akıl kavramı. – İstanbul, 1991.